

PAPER

YURIDIK MATN TARJIMASINING LINGVISTIK VA LINGVOMADANIY TADQIQI

Sheraliyeva Moxinur Xoldorali qizi ^{1,*}

¹ Oriental Universiteti Lingvistika ingliz tili

* sheraliyeva1@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada yuridik matnlarning tarjimasini jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va lingvomadaniy muammolar tahlil etiladi. Yuridik diskurs o'ziga xos uslubiy, terminologik va sintaktik xususiyatlarga ega bo'lib, ularni boshqa tilga tarjima qilishda yuqori darajadagi aniq, izchil va madaniy moslikni talab qiladi. Maqolada yuridik terminlar va huquqiy tushunchalarning turli tillardagi ifodalanish shakllari, milliy-huquqiy tafakkurdagi farqlar, shuningdek, madaniyatlararo kommunikatsiyaning tarjimadagi o'rni lingvistik tahlillar asosida ko'rib chiqiladi.

Key words: Tarjima, til, lingvistika, matn, yuridik matn, tahlil, lingvomadaniyat, huquqiy tafakkur, terminologiya, madaniyatlararo kommunikatsiya, tarjima strategiyasi semantik moslik.

Kirish

Yuridik matnlar – huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi, rasmiy-huquqiy nutq uslubida yaratilgan matnlardir. Bunday matnlarning asosiy vazifasi – aniq, tushunarli va bir ma'noli ifodalar orqali huquqiy normalarni bayon qilishni anglatadi. Shu sababli, yuridik matnlar o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega bo'ladi.

Quyida yuridik matnlarning asosiy lingvistik jihatlarini ko'rsatilgan:

1. Rasmiylik va standartlik

Yuridik matnlar rasmiy uslubga asoslanadi. Ularda shaxsiy munosabat, hissiy ifoda mavjud

emas. Matnlar davlat hujjatlarida qabul qilingan standartlarga mos yoziladi.

2. Aniq va bir ma'nolilik

Yuridik matnlarda har bir so'z va ibora aniq ma'noga ega bo'lishi kerak. Ikki yoqlama yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin bo'lgan iboralardan qochiladi. Bu talab yuridik normalarning noto'g'ri talqin qilinishining oldini oladi.

3. Terminlarga boylik

Yuridik matnlar ko'plab huquqiy terminlardan foydalanadi (masalan: "subyekt", "obyekt", "javobgarlik", "shartnoma", "huquqbuzarlik"). Bu terminlar maxsus ma'noga ega bo'lib, huquqiy

Compiled on: October 3, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to International Journal of Science and Technology for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

atamalarining to'g'ri qo'llanishi juda ahamiyatlidir.

4. Murakkab sintaktik tuzilma

Yuridik matnlar ko'pincha murakkab gaplardan tashkil topishi sir emas. Gaplar ichma-ich qo'shilgan holatda bo'lishi mumkin, bu esa matnning huquqiy aniqligini oshiradi.

5. Klishe va standart iboralar

"Shartnoma tomonlari quyidagilar to'g'risida kelishib oldilar...", "Mazkur qonun quyidagilardan iborat..." kabi andozaviy iboralarning doimiy qo'llanishi yuridik matnlarning barqaror tuzilishini ta'minlaydi.

6. Uchinchi shaxsdagi bayon

Yuridik matnlar asosan uchinchi shaxsda bayon qilinadi, bu esa matnning betarafligini ta'minlaydi. Yuridik matnlarning lingvistik xususiyatlariga misollar asosida izoh:

Quyida ayrim huquqiy hujjatlardan olingan parchalar orqali yuqoridagi lingvistik jihatlarni ko'rishimiz mumkin:

1. *Aniq va bir ma'nolilik*: Misol: "Fuqarolik kodeksining 1093-moddasiga muvofiq, shartnoma yozma shaklda tuziladi." Bu jumlada "shartnoma yozma shaklda tuziladi" degan ibora aniq va tushunarli. Bu yerda qanday shaklda tuzilishi kerakligi shubhasiz tarzda belgilab qo'yilgan.

2. *Terminlarning qo'llanishi*: Misol: "Ijro hujjatining asosida ijro varaqasi beriladi." Bu yerda "ijro hujjati" va "ijro varaqasi" huquqiy terminlar bo'lib, ular maxsus ma'noga ega va faqat yuridik sohaga oid hujjatlarda qo'llanadi.

3. *Sintaktik murakkablik*: Misol: "Agar tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomada boshqa holat ko'rsatilmagan bo'lsa, fuqarolik huquqiy munosabatlar umumiy qoidalar asosida tartibga solinadi." Bu gap bir nechta bandlardan iborat bo'lib, ichma-ich qo'shilgan tuzilma orqali fikr yuridik aniqlik bilan ifodalanmoqda.

4. *Klishe iboralar*: Misol: "Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan." Bunday iboralar deyarli har bir yuridik matnda uchraydi va matni rasmiyligini anglatadi.

5. *Uchinchi shaxsdagi bayon*: Misol: "Jismoniy shaxs soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tadi." Bu yerda subyekt bevosita emas, balki uchinchi shaxs sifatida tilga olinmoqda, bu esa hujjatning neytralligini ta'minlaydiga vositadir.

Yuridik matnlar tilshunoslik nuqtayi nazaridan

o'ziga xos, qat'iy strukturaga ega, aniqlik va tushunarlilikni ta'minlovchi vositalardan foydalanadi. Bu matnlar nafaqat huquqshunoslar, balki tarjimonlar, tilshunoslar, jurnalistlar uchun ham alohida tahlil obyekti sanaladi.

Bugungi davrda davlatlar va insonlar o'rtasidagi yuridik aloqalar ham rivojlanib bo. Shu bois, u xoh yozma tarjima bo'lsin xoh og'zaki, yuridik tarjimaga bo'lgan talab ham kundan-kunga oshmoqda. Bu esa tarjimonlar tomonidan yuridik sohada ko'plab xalqaro konferensiyalarda og'zaki yoki sinxron tarjimani amalga oshirish va ko'plab xalqaro hujjatlarni o'zbek tiliga, o'zbek tilidagi hujjatlarni esa ingliz tiliga tarjima qilishni taqozo qilmoqda. yuridik tarjimaning asl maqsadi faqatgina uning mazmuni va tarkibini to'liq yetkazib berish emasdir, balki matndagi haqiqiy mazmunni saqlashda hamdir. Shunisi ayonki, yuridik tarjimada matn tarkibi asosan terminlardan tashkil topgan va gap murakkab shaklda bo'ladi. Har bir tilning o'ziga xos yuridik terminlari, o'z qonun tizimi hamda madaniyati shakllantirilgan, barcha qonunlar va qarorlar uzluksiz ravishda o'zgarib turadi. Natijada yuridik tarjima jarayonida boshqa tarjima turlaridan farqli muammolar yuzaga keladi. Quyida yuridik tarjima jarayonida kuzatiladigan asosiy muammolar ko'rib chiqiladi (ingliz-o'zbek tillari misolida):

1. Har bir davlatda alohida huquq tizimi va qonunlar mavjudligi. Davlatlarda huquq tizimining turlichaligi undagi yuridik hujjatlar va terminlarning ham turlicha bo'lishiga olib keladi. Bu esa tarjima davomida ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. shuningdek, O'zbekiston Respublikasida jinoyat sudi Angliyada "Crown Court" ga to'g'ri keladi. Ammo "crown" so'zi toj ma'nosini bildirgani uchun tarjima jarayonida uni "Qirollik sudi" bilan adashtirishga ham olib kelishi mumkin. Agarda tarjimon ushbu terminning mazmunini bilmasa, so'zning tarkibi orqali tog'ridan-tog'ri tarjima qilishning iloji bo'lmaydi. Bu muammoni hal qilish uchun tarjimon o'zi tarjimasini olib borayotgan ikki davlatning ham huquqiy tizimi va qonunlari haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lish, tarjimani amalga oshirayotganda har bir terminning batafsil izohi bilan ham tanishib chiqishi maslahat beriladi.

2. Davlat qonunlari va huquq tizimining uzluksiz ravishda o'zgarib turishi. Yuridik tarjimonlarning

oldidagi muammo faqatgina tizimlarning xilma-xilligi emas, balki ularning tinimizsiz o'zgarib turishi hamdir. Masalan, biror bir tarjimon qilayotgan yuridik hujjat tarjimasini ikki oy ichida tugatishi kerak deylik. Lekin o'sha tarjima tugaguniga qadar qonun tizimida biror qonun yoki nizom o'zgartirilsa, tarjima o'z kuchini yo'qotishi yoki noto'g'ri bo'lib qolishi mumkin. Chunki qonunlar tez-tez o'zgarib turadi. Shunday qonunlar borku, hattoki bir kunda ham o'zgartirish kiritilishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu sohadagi har bir tarjimon doimiy ravishda tarjima amalga oshirilayotgan ikki davlatdagi qonuniy hamda yuridik yangiliklardan xabardor bo'lib yurishi, ayniqsa, tarjima qilayotgan yuridik matnga tegishli va unga yaqin qonunlar va nizomlar e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Shuningdek, yuridik tashkilot yoki qo'mita a'zosi bo'lish, yuridik jurnallar va gazetalarni doimiy kuzatib borish ham tavsiya qilinadi.

3.Yuridik sohadagi terminlarni tushuna olish va ularni to'g'ri tarjima qilish.Yuridik soha vakillari odatda rasmiy tilda gapirishadi, bu esa til ichida yana bir til degani. Xuddi tibbiyot xodimlari kasalliklarni nomlashgani va gapirishganida ko'p ma'lumotlar tushunarli bo'lmagani kabi yuridik matnlar ham xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'ladi.

Yuridik matnlardagi so'zlarning deyarli yarmi tushunarsiz hamda maxsus terminlar bilan berilgan bo'ladi. Bu kabi mantlarni oddiy fuqarolar ham tushuna olmagan vaziyatda, tarjimondan uni boshqa tilga o'girish talab qilinadi. Ushbu muammoni yechish uchun esa tarjimonlar sohadagi barcha terminlar bilan tanish bo'lishi, o'zi uchun terminlar glossariysini yaratishi, uni yodlashi va tarjima davomida izlanish qilishi kerak bo'ladi.

4.Gapning sintaktik tuzilishi va tinish belgilari bilan bog'liq muammolar.Yuridik hujjatlarni tarjima qilishning eng qiyin va vaqt talab qiladigan muammolaridan biri bu gapning sintaktik tuzilishidagi xilma-xilliklar, yuridik matnlarda foydalaniladigan gap tuzilishi hamda ulardagi tinish belgilari hisoblanadi. Yuridik sohada matnlar odatda majhul nisbatda yozilgan bo'ladi.

Bundan tashqari gaplarning asosiy qismi murakkab gaplar shaklida, ko'p sonli vergullar, nuqtali vergul, uyushiq bo'laklarga to'la bo'ladi. Yuridik matnlarning oddiy tildagi matnlarga

o'xshamaydigan ushbu xususiyati har qanday tilshunos, yozuvchi va tarjimon uchun tarjimadagi kattagina to'siqlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tarjima davomida har bir tinish belgisi va gap bo'laklari joy joyiga qo'yilishi talab qilinadi. Uzundanuzoq gapdagi birgina vergul yoki so'z tushib qolishi ham matnda noaniqlik va tushunarsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu hollarda matn tarjima qilib bo'lingandan keyin boshqa tarjimonga yoki yuridik mutaxassisga ko'zdan kechirish uchun berish yoki tarjimonning o'zi matnni sinchkovlik bilan bir necha marotaba ko'zdan kechirib chiqish talabetiladi.

5. Tarjima uchun ko'p hollarda qisqa vaqt berilishi.Yuridik tarjima matnlarining katta qismi shoshilinch ravishda tarjima qilinishi talab qilinadi. Chunki hujjatlar ko'pincha ma'lum bir muddatga, sud ishiga yoki qonunga bog'liq bo'ladi. Tarjimon vaqtida tarjima qilib bera olmagan vaziyatlarda esa noxush holatlar kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ham tarjima olish davomida uning muddatiga e'tibor qilish, tarjima jarayonini sekinlashtiradigan har bir omilni inobatga olish tavsiya qilinadi.Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuridik tarjima boshqa tarjima turlaridan o'zining ma'lum bir qiyinchilik hamda muammolari bilan ajralib turadi. U nafaqat tilni murakkab bilishni, balki yuridik bilimga ham ega bo'lish, terminlar bilan yaxshi ishlash, kuchli xotiraga ega bo'lish, yangi qonunlar va yuridik tizimdagi yangiliklar bilam uzluksiz ravishda tanishib borishni talab qiladi.

Xulosa

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan strategiyalar sinxron tarjimonlar kompetensiyasini oshirishga katta xizmat qiladi. Bu jarayonda, eng muhimi, ularni to'liq, ko'rsatmalarga amal qilgan holda hamda uzluksiz ravishda bajarishdir. Taklif qilingan barcha mashqlarni bajarish jarayoni ularni shunchaki bajarish emas, ma'lum va kerakli miqdorda, shartlarga amal qilgan holda bajarish muhimdir

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Huquq va tarjima" – Ilmiy jurnal, TDYU. <https://www.tsul.uz>
2. Tagnonov S. Tarjimashunoslik asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2005 Ensiklopediyasi, 2020.

3. Black's Law Dictionary (O'zbekcha-versiyasi).
4. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi. <https://www.lex.uz>
5. Davlat organlarining huquqiy hujjatlari uchun maxsus tarjima bo'limlari (Adliya vazirligi, Oliy sud).